QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ XOJELI RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 20-noyabr 320-13-191-Q/24 Xo‘jayli tuman hokimligi

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilish haqida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish haqida”gi Qonunining 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoyitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng oz sonini belgilash va band etib qo‘yish tartibi haqida”gi rejasiga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalib kelayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun Xo‘jayli tumanida 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band etib qo‘yish maqsadida, Xo‘jayli tumani hokimi

QAROR QILADI:

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunning 38-moddasiga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 2 745 nafar shaxslarni tashkil qiluvchi 2,62 foiz miqdorida, shu hisobdan:

a) nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 4,1 foiz - 3 nafar shaxsni;

b) o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 56,9 foiz - 41 nafar shaxsni;

v) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 30,5 foiz - 22 nafar shaxsni;

g) safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 4,1 foiz - 3 nafar shaxsni;

d) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 2,7 foiz - 2 nafar shaxsni;

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 1,3 foiz - 1 nafar shaxs miqdorida ish oʻrinlari belgilansin.

2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2025-yil uchun band etib qoʻyish lozım boʻlgan korxonalar roʻyxati 1-ilovaga, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari 2025-yil uchun band etib qoʻyish boʻyicha tuzilgan maxsus komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish oʻrinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprel kunidan kechiktirmasdan ish oʻrinlarining qolgan qismi 75 foizini tashki qilish (ajratish yoki band etib qoʻyish) haqidagi, ya'ni har bitta kvota toifasi boʻyicha ish oʻrinlari band etib qoʻyiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma'lumotlarni va yechim boʻyicha chiqarilgan farmoyish nusxalarini tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimiga taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona va muassasalar rahbarlari ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarining koʻrsatib oʻtilgan miqdorini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari band etib qoʻyish tartibi haqida"gi rejaga koʻra belgilangan muddatlarda tashkil qilish (ajratish yoki band etib qoʻyish) va ish oʻrinlari sanitariya-gigiena me'yorlariga va xodim oʻz burchlarini bemalol bajarishini ta'minlaydigan mehnat sharoyitlariga yarasha boʻlishini ta'minlasin.

5. Ushbu qaror talablari bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga "Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari band etib qoʻyish tartibi haqidagi reja"ning 21-bandiga koʻra jarimaga tortiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatları vazirining 2019-yil 10-maydagi "Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarması mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi haqidagi Qonunini tasdiqlash haqida"gi 19-2019-B-sonli (AV roʻyxat raqami №3163, 31.03.2019-yil) buyrugʻiga asos subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotda joriy etilganini hisobga olib, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlariga tegishli shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga olgan idoralarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam ish haqining 2 barobari miqdorida haq toʻlash aholi bandligiga koʻmaklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida aholi bandligiga koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari hisobga olinsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ushbu qarorning tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga etkazib berilishini hamda uning ijrosi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Xo‘jayli tumani hokimining 2023-yil 6-noyabr kungi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2024-yil uchun band etib qo‘yish haqida”gi 258-13-191-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotqan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o‘rinbosari K.Kudaybergenov va X.Xalmuratov zimmalariga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror “Xojeli haqıyqatı” gazetasida rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **J.M. Ermashev**

Xo‘jayli tuman hokimining
2024-yil 20-noyabrdagi
320-13-191-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2025-yil uchun band etib qo‘yish lozım bo‘lgan korxonalar ro‘yxati

№	Tuman hududidagi korxona va tashkilotlar nomi	Ishchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni	Darajalari						
				O‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan shaxs bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogironligi bo‘lgan shaxs uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari uchun
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.	Xo‘jayli tumani Tibbiyot birlashmasi	1332	21	13	8					
2.	Xo‘jayli tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	186	11	7	1		1	2		
3.	O‘zbekiston Respublikasi "Cuv Transporti" assotsiatsiyasi	96	2	1		1				

	Qoraqalpog‘iston suv yullari Xo‘jayli texnikaliq uchastkasi davlat unitar korxonasi									
4.	"Xo‘jayli tuman Yo‘llardan foydalanish" unitar korxonasi	91	9	5		2	1		1	
5.	Xo‘jayli tumani irrigatsiya bo‘limi	41	2	2						
6.	Xo‘jayli tumani "Barkamol avlod" bolalar markazi	51	4	2	1		1			
7.	3-sonli maktab internat	213	6	3	3					
8.	4-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi	61	2	1	1					
9.	5-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	40	2	1	1					
10.	21 sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	44	2	1	1					
11.	4-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	91	2	1	1					
12.	35-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	77	2	1	1					
13.	18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	78	1		1					
14.	6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	106	2	1	1					
15.	3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	165	2	1	1					
16.	29-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	73	2	1	1					
Jami		**2745**	**72**	**41**	**22**	**3**	**3**	**2**	**1**	**0**

Xo‘jayli tuman hokimining
2024-yil 20-noyabrdagi
320-13-191-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2025-yil uchun band etib qo‘yish bo‘yicha tuzilgan maxsus komissiya ro‘yxati

1.	J.Ermashev	-	Tuman hokimi, **komissiya rahbari**
2.	K.Kudaybergenov	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, **komissiya rahbari o‘rinbosari**
3.	X.Xalmuratov	-	Tuman hokimi o‘rinbosari, **komissiya rahbari o‘rinbosari**
4.	I.Abdijabbarov	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i, **komissiya a’zosi**
5.	M.Elmag‘anbetov	-	Tuman tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, **komissiya kotibi**

Eslatma: *Komissiya a’zolari lavozimi o‘zgargan taqdirda unung o‘rniga ushbu lavozimga tayinlangan yoki vazifasini bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*